O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU. ILMIY XABARLAR

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.B.Karabayeva
Prunus persica var. *Nectarina* o‘simligi mineral va aminokislota tarkibi 109

BIOLOGIYA

Sh.Q.Yuldasheva, A.Z.Rasuljonov
Vespidae oilasi vakillarini tutish va ularga tuzoqlar qo‘yishning ayrim usullari 114
G.M.Zokirova, Sh.B.Yo‘ldashev
Markaziy Farg‘ona hududida qayd etilgan gerpetofauna (Reptilia)ning Chelonia va Serpentes turkumi sistematikasi, morfologiyasi va tarqalish areali 119
I.B.Isaqov, A.K.Xusanov, K.Zokirov, O.T.Sobirov, N.D.Ibroximova
Farg‘ona vodiysida tarqalgan unsimon qurtlarning (Homoptera: Coccinea, Pseudococcidae) zoogeografiyasiga oid ma’lumotlar 128
M.A.Mamasolieva, L.A.Gafurova, O.B.Sharipov
Sug‘oriladigan o‘tloqi alluvial tuproqlarni oksireduktaza fermentlar faolligiga kremniyli o‘g‘itlar ta’siri (Buxoro vohasi misolida) 135
Y.Qayumova, X.Komilova
Farg‘ona viloyati ichki suv havzalarida invaziv turlarining tarqalishi 142
A.A.Ma’rupov
Farg‘ona vodiysi uzunmo‘ylov qo‘ng‘izlarining taksonomik reviziyasi va zamonaviy tur tarkibi 147
A.E.To‘lqinov
Janubiy Farg‘ona kanali algoflorasining 2023-yil yoz mavsumidagi sistematik tahlili 151
S.M.Xaydarov, J.G‘.Raximov
*(L.Minor)*ning biologik, morfologik xususiyatlari va turlar tarkibi, erigan kislorod darajasini aniqlash 155
G.M.Zokirova, Sh.B.Yo‘ldashev
Yozyovon tabiat yodgorligida qayd etilgan tangachalilar turkumi (*Squamata*) vakillarining sistematikasi 158
M.A.Muqimov
Farg‘ona vodiysi suv havzalarida tarqalgan oddiy qirraqorin balig‘i *(Hemiculter Leucisculus)*ning morfoekologik xususiyatlari 164
М.М.Мирзахалилов
Некоторые морфобиологические показатели обыкновенной маринки *(Schizothorax eurystomus)* Шахрихансая 171

GEOGRAFIYA

R.Y.Xoliqov
Landshaftlarni funktsional rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar 175
Р.Й.Халиков, И.Я.Зикиров
Роль климатических факторов в формировании горно-долинных парагенетических ландшафтов 179
O‘.B.Badalov
Qashqadaryo viloyatini rekreatsiya-turistik resurslaridan samarali foydalanishning geografik jihatlari 185
O.I.Abdug‘aniyev, D.B.Kosimov
Madaniy landshaft: umumiy g‘oyalar va tushunchalar tadqiq etishdagi yondashuvlar 190
H.A.Abduvaliyev
Aholi hududiy tashkil etilishini o‘rganishning geografik yo‘nalishlari 196

ILMIY AXBOROT

O.Q.Abdullayev
Jismoniy ta’limda o‘quvchilarning ruhiyatini tarbiyalash va irodasini mustahkamlashning ahamiyati xususida 202
H.Arabboyev
O‘quvchilarni ommaviy sport sog‘lomlashtirish jarayoniga tayyorlashda tabaqalashtirilgan jismoniy ta’lim texnologiyasi va shart-sharoitlari 206

GEOGRAFIYA

UDK: 911.3:911.37 (911.372.2) DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss6/a131

AHOLI HUDUDIY TASHKIL ETILISHINI O‘RGANISHNING GEOGRAFIK YO‘NALISHLARI

ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ НАПРАВЛЕНИЯ ИЗУЧЕНИЯ ТЕРРИТОРИАЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ НАСЕЛЕНИЯ

GEOGRAPHICAL DIRECTIONS FOR STUDYING THE TERRITORIAL ORGANIZATION OF POPULATION

Abduvaliyev Hayitboy Abdug‘aniyevich[1]

[1]Farg‘ona davlat universiteti doktoranti, geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD

Annotatsiya

Maqolada jamiyatni hududiy tashkil etishning tub mohiyati bu aholni hududiy tashkil etish ekanligi, bevosita bu ikki tushunchani bir-biridan alohida tushunib bo‘lmasligining mohiyati tushuntirilgan. Aholini hududiy tashkil etish tushunchasining mazmuniga ta’sir etuvchi aholini o‘rganuvchi fanlarning qay darajada ta’sirga ega ekanligi va har qanday holatda ham tashkil etish hududiylik kasb etishi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, maqolada hududiylik geografik makonning bir qismi bo‘lgan aholi va aholi punktlarining asosiy mezoni sifatida talqin qilinadi va uning hududiy tabaqalanish orqali namoyon bo‘lishi asoslanadi.

Аннотация

В статье поясняется, что основной сущностью территориальной организации общества является территориальная организация населения, а суть в том, что эти два понятия нельзя понимать отдельно друг от друга. Думается о том, в какой степени науки, изучающие население, оказывают влияние на содержание понятия территориальной организации населения, и в любом случае организация приобретает территориальность. Также в статье территориальность трактуется как основной критерий численности населения и населенных пунктов, входящих в географическое пространство, и обосновано ее проявление посредством территориальной стратификации.

Abstract

The article explains that the main essence of the territorial organization of society is the territorial organization of the population, and the point is that these two concepts cannot be understood separately from each other. One thinks about the extent to which the sciences that study population influence the content of the concept of territorial organization of the population, and in any case, the organization acquires territoriality. Also in the article, territoriality is interpreted as the main criterion for the size of the population and settlements included in the geographical space, and its manifestation through territorial stratification is justified.

Kalit so‘zlar: *Jamiyatni hududiy tashkil etish, aholi geografiyasi, tabiiy geografik omillar, aholining joylanishi, aholi zichligi, aholini hududiy tashkil etish, aholining turmush tarzi, hududiylik.*

Ключевые слова: *Территориальная организация общества, география населения, природно-географические факторы, размещение населения, плотность населения, территориальная организация населения, образ жизни населения, территориальность.*

Key words: *Territorial organization of society, geography of the population, natural geographical factors, distribution of the population, population density, territorial organization of the population, lifestyle of the population, territoriality.*

KIRISH

Aholi ishlab chiqarish va iste’mol jarayonining subyekti va ayni paytda uning obyekti ham hisoblanadi. U kishilarning hududiy birligini, ya’ni, o‘ziga xos qamrovi sifatida jamiyatni hududiy tashkil etishning asosi bo‘lib xizmat qiladi [1; 180-b.]. Aholining bunday murakkab xususiyatlari uning turli fanlar doirasida (aholi geografiyasi, demografiya, iqtisodiyot, sotsiologiya, etnografiya, psixologiya, dinshunoslik, tibbiyot va b.) o‘rganilib, unga nisbatan bosh omillik xususiyatlari turlicha qaraladi. Lekin, geografiya fanlari qatoriga kiruvchi eng muhim fanlardan biri hisoblangan iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada aholining bosh omil ekanligi yaqqol sezilib turadi. Aholi terminini o‘zagiga aylangan “aholi soni”ning o‘zgaruvchanligi hisobiga uni muntazam tadqiq etib turish talab etiladi.

Aksariyat fanlarda aholi ishchi kuchi, mehnat resursi, ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirish va rivojlantirishning omili sifatida qaralib, bugungi jamiyatda ko‘proq ijtimoiy (sotsial)

tushuncha sifatida o‘rganiladi. Jamiyatning sotsiallashuvi jarayonida aholining yashash sharoiti va turmush tarzi, takror barpo bo‘lishi, hududiy joylashuvi kabi jihatlarining boshqa omillarga (aholining diniga, salomatliligiga, dunyoqarashiga, ekologiyaga bo‘lgan munosabatiga) ta’sirini tadqiq etish ustuvorlashib bormoqda. Aholining bunday jihati hozirda iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining ijtimoiylashishiga, ekologiyalashishiga, gumanitarlashishiga sabab bo‘lmoqda.

Aholi geografiyasida bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ikki yirik hududiy tizimlarni ya’ni, aholi va aholi punktlarini o‘rganishi ko‘pchilikka ma’lum. Birinchisi, ya’ni, aholini o‘rganishda uning aholining hududiy guruhlari bilan shug‘ullaniladi. Ushbu yondoshuvning maqsadiga qarab, qit’alar, davlatlar, mamlakatlar va ularning ayrim hududlari (shahar, qishloq, ovul, turar-joy) aholisi qiyosiy o‘rganiladi. Ikkinchisi, ya’ni, aholi punktlarini o‘rganishda aholining turli tipdagi aholi punktlari bo‘yicha taqsimlanishini, joylanishini tadqiq etiladi. Bu ikki tizim bir-biriga mutanosib bo‘lib, doimo bir-birini to‘ldiradi. Aholining geografik joylashuvi o‘z navbatida hududning tabiiy geografik sharoitiga, tabiiy resurslar bilan ta’minlanganligiga, hududning o‘zlashtirilishiga bog‘liqdir. Bu holatlarni fanda bugungi kunda aholi punktlarining komfortliligi (yashash uchun zarur shartlarga egaligi) sifatida aytilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqotlarda asosan aholining hududiy tashkil etilishini ikki jihatdan ko‘rib chiqiladi. Birinchida, har qanday hududda ishlab chiqarish va atrof-muhitni boshqarish bilan bog‘liq holda aholini taqsimlashni tashkil etish jarayonlarining yig‘indisi sifatida. Bunda aholining ishlab chiqarish va atrof-muhitni boshqarish bilan bog‘liq munosabatlarini hisobga olish butun jamiyatning ham, uning alohida hududiy qismlarining ham ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tezlashtirish imkonini beradi. Ikkinchida, bu jarayon natijasida aholi soni va zichligi, tarkibi va aholi punktlari, aholi punktlari tarmoqlari, migratsiya va boshqalar hududiy tashkil etilishi jarayonlari sifatida ko‘riladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, birinchisida u jarayon sifatida, ikkinchisida jarayonning natijasi sifatida namayon bo‘ladi [5; 7-b.].

Mamlakatimizda ko‘plab tadqiqotchilar aholi bilan bog‘liq ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik masalalarni o‘rgangan. Jumladan, M.Q.Qoraxonov (1983), I.R.Mullajonov (1983), G.R.Asanov (1994), A.A.Qayumov (2000), L.P.Maksakova (2001), M.R.Bo‘riyeva (2005), A.S.Soliyev (2005), O.B.Ata-Mirzayev (2006), E.A.Axmedov (2006), R.A.Ubaydullayeva (2006), B.X.Umurzaqov (2007), N.X.Raximova (2007), Q.X.Abduraxmonov (2010), X.X.Abdurahmonov (2010), N.J.Yembergenov (2011), Z.N.Tojiyeva (2010, 2017), H.Abduvaliyev (2020), R.Qodirov (2021), X.Oblaqulov (2021) kabi tadqiqotchilar ishlarida mamlakatimiz aholishunosligi, demografiyasi, shaharlar va aholi geografiyasi, mehnat resurslaridan foydalanish va aholi bandligi, aholining hududiy tashkil etilishiga oid bir qator ishlar amalga oshirilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Aholining hudud bo‘ylab taqsimlanishi aholi va aholi punktlarining joylashuvi bilan bog‘liqdir. O‘z navbatida aholi punktlari shakllanishi aholi taqsimlanishining hududiy shakli hisoblanadi. Aholi sonining o‘sishi va joylanishining muhim masalalaridan biri aholi punktlari joylanishining yagona tizimlarini barpo etishdir. Mazkur barpo etishda har bir mamlakat va uning hududiy birliklari doirasida o‘ziga xos bo‘lgan uslubiyotlardan foydalaniladi. Biroq, ayni ma’noda barcha aholi punktlari ishlab chiqarish, transport aloqalari, umumiy infratuzilma tarmoqlari, ijtimoiy-madaniy va dam olish joylari uzviy o‘zaro bog‘liq holda birlashgan bo‘ladi. Ikkinchidan, aholi punktlari joylanishida tayanch markazlarni tashkil etishdir. Bu tayanch nuqtalar shaharlar, katta va yirik shaharlar, shahar aglomeratsiyalari, megalopolislar bo‘lishi mumkin. Ba’zan, kichik aholi punkti uchun rayon markazi yoki kichik shahar aholi punkti tayanch vazifasini o‘taydi. Aynan mana shu ilmiy qarash mazmun-mohiyati jihatdan amalda uzoq vaqtdan beri o‘z mavqe’ini saqlab kelmoqda (12; 18-b.(.

Aholi o‘zidan yirikroq tizimning bir qismi hisoblanib, uning yirik tizimi esa bu - jamiyatdir. Tabiat bilan o‘zaro munosabatlarda, moddiy ne’matlar ishlab chiqarishda, boshqa bir qator vazifalarni bajarishda jamiyatni to‘g‘ri hududiy tashkil etish zarurligi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan ta’kidlanidi. Jamiyatning rivojlanish davri murakkab tuzilishga ega bo‘lgani holda uning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa tuzulmalarini ajratish mumkin. Shuning uchun eng yirik hududiy tashkil etish jamiyatni hududiy tashkil etishdir. Jamiyatni hududiy tashkil etish hududiy

mehnat taqsimotini, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishni, tabiat bilan jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni va boshqa ko‘plab masalalarni qamrab oladi.

Yer yuzidagi barcha aholi o‘z yashash manzillariga ega va bu uning hududiylik xususiyatini aks ettiradi. Aholi termini qanday ma’noda qo‘llanilmasin uning makonda, hududda joylashganligi uning asosiy xususiyatlaridan biri bo‘lib qolaveradi. Aynan shuning uchun aholi tushunchasi har doim hudud tushunchasi bilan yonma-yon, o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqiladi.

Hudud tushunchasi unga ma’nodosh bo‘lgan yer, makon, maskan, joy, manzil tushunchalariga qaraganda ancha kengroq ma’noga ega. Arab manbalarida hudud tushunchasi had, haddi, sarhad so‘zlari bilan o‘zakdosh bo‘lib chegara, kimgadir qarashli yer ma’nosini anglatadi va aynan hozirgi lug‘atimizga arab leksikasidan kelib qo‘shilgan. Hudud deganda - o‘zida tabiiy va inson tomonidan yaratilgan barcha resurslarni jamlagan, sanoatda, transport, qurilish va aholi manzilgohlarini tashkil etishda muhim omil vazifasini o‘taydigan, o‘ziga xos geografik o‘ringa, ma’lum tabiiy landshaft va xo‘jalik xususiyatlariga ega bo‘lgan maydon tushuniladi (3; 21-b).

Aholi geografiyasida aholi punktlari shakllanishi, joylashuvi va rivojlanishi muammolari asosiy o‘rin egallaydi. Iqtisodiy geografik tadqiqotlar doirasida “aholi joylashuvi” tushunchasi ikki xil qo‘llaniladi. Birinchisida u aholining yashash joylari bo‘yicha joylanishi tushuniladi. Bunda yashash joy sifatida ko‘cha, mahalla, qishloq, tuman, hudud, mintaqa, mamlakat yoki qit’a tushunilishi mumkin. Ikkinchisida «aholi joylashuvi» turg‘unlik va dinamik o‘sish tushunchalarida o‘z aksini topadi. Aholi punktlari va ularning rivojlanish jarayoni ichki tizimlar va elementlar o‘rtasidagi munosabatlarning murakkab va ko‘pincha qarama-qarshi xususiyatiga ega bo‘lgan hudud ichki potensialida namayon bo‘ladi. Ushbu monosabatlar ma’lum bir geografik makonning xususiyatini belgilaydi.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinadiki, har qanday ma’noda aholi va aholi manzilgohlari hududiylik kasb etishi ajralib chiqadi. Bu esa o‘z navbatida mazkur tadqiqot doirasida hududiylik tushunchasini tasniflashni ham taqozo etadi.

Hududiylik – bu geografik makonning bir qismi bo‘lgan aholi va aholi punktlarining asosiy mezonidir. Aholi joylashuvining barcha elementlari hududiy xususiyatga ega bo‘ladi. Hududiylik hududiy tabaqalanish orqali namoyon bo‘ladi (8; 65-69 b).

Hududiylik termini bilan birga iqtisodiy geografiyada bir qator “tashkil etish” tushunchalari birga qo‘llanilib, ular o‘z o‘rganish obyektiga qarab, iqtisodiy geografiyaning bir necha o‘zak tushunchalari bilan yonma-yon keladi. Xususan, “jamiyat” bilan “jamiyatni hududiy tashkil etish”, “sanoat” bilan “sanoatni hududiy tashkil etish”, “aholi” bilan “aholini hududiy tashkil etish”, “transport” bilan “transportni hududiy tashkil etish”, “qishloq xo‘jaligi” bilan “qishloq xo‘jaligini hududiy tashkil etish” va xokozo. Mazkur tadqiqot doirasida bunday tashkil etishlarning eng muhimi “aholini hududiy tashkil etish” tushunchasi bo‘ladi. Ushbu tushuncha aholi geografiyasi sohasidagi tadqiqotlarda eng ko‘p ishlatilib, bevosita aholining o‘zini hamda aholi punktlarini tashkil etishni qamrab oladi. Ya’ni, u yoki bu shaklda ishlatilmasin baribir, aynan bir ma’noni anglatib kelaveradi. Shuning uchun ko‘plab tadqiqotchilar «aholi punktlarini hududiy tashkil etilishi» masalalarida ham «aholini hududiy tashkil etish» tarzida qo‘llanilishi asl maqsaddan chalg‘itmaydi. «Hududiy tashkil etish» iborasi dastlab N.N.Kolosovskiy (1947) tomonidan qo‘llanilgan (11; 23-b). A.YE.Probst (1982) tomonidan esa ishlab chiqarishga nisbatan qo‘llanildi. Keyinchalik «ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish» atamasi qo‘llanilib, u nafaqat milliy iqtisodiy tizim kompleksiga, balki alohida tarmoqlar va iqtisodiy rayonlarga nisbatan ham keng qo‘lanilgan.

Shu o‘rinda aholi qamrovining umumiy yig‘indisiga nisbatan qo‘llaniluvchi jamoa, sotsium yoki jamiyat termini muhim iqtisodiy geografik atama hisoblanib, «jamiyatni hududiy tashkil etish» bevosita yuqorida ta’kidlangan o‘zak tushunchalarning (aholi, sanoat, transport...) umumiy yig‘indisini hamda ularni tashkil etishni ifodalab keladi. Jamiyat hayotini hududiy tashkil etish, turli geografik jarayonlarni boshqarishda ijtimoiy-iqtisodiy geografiyani rivojlantirishning eng istiqbolli yo‘lidir. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, jamiyatni hududiy tashkil etish, aholini hududiy tashkil etish kabi tushunchalarning mazmuniga izoh berish, ular o‘rtasidagi nozik farqlarni ajratish muhim hisoblanadi. Lekin bu ikki tushuncha bir-biriga shu qadar birikib ketganki, jamiyatni aholisiz, aholini jamiyatsiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa tuzilmalari (tashkilotlari) mavjud. Eng muhim tashkilotlardan (tuzilmalardan) biri jamiyatning hududiy tashkil etilishidir. Keng ma’noda

jamiyatning hududiy tashkil etilishi geografik mehnat taqsimoti, ishlab chiqaruvchi kuchlarning joylashishi, odamlarning joylashishi, jamiyat va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar, mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy siyosat va boshqalar bilan bog‘liq barcha masalalarni qamrab oladi.

Jamiyatni hududiy tashkil etish – ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ma’lum bosqichida shakllangan aholi punktlari tizimlari, iqtisodiyot va tabiatni boshqarish, axborot va hayotni ta’minlash tizimlari, ma’muriy-hududiy tuzilma va boshqaruvning o‘zaro bog‘liq birikmasi va faoliyatidan iboratdir [13; 470-473 b.].

Z.N.Tojiyevaning ta’kidlashicha, jamiyatning hududiy tashkil etish o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

– aholining joylashuvini;
– ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohasi tarmoqlarini;
– tabiatdan foydalanishni;
– hududiy mehnat taqsimotini;
– iqtisodiy, milliy-etnik rayonlashtirishni;
– davlatning hududiy-siyosiy va ma’muriy-hududiy tuzilishini.

Binobarin, jamiyatni hududiy tashkil etishdan asosiy maqsad mamlakatlar alohida birliklari hamda davlatning barcha hududiy bo‘linmalarning rivojlanishi samaradorligini oshirishga qaratilishi bilan ahamiyatlidir. Shu nuqtai-nazaridan Yangi O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasida jamiyatni hududiy tashkil etish masalalari asosiy o‘rinda bo‘lishi va bunday tashkil etishlarda ko‘p yillarga mo‘ljallangan bashoratlarni qo‘llanishi hamda rivojlangan mamlakatlar tajribasida sinovdan o‘tib, samara bergan “tashkil etish”larni qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Lekin shuni ham e’tiborga olish lozimki, har bir iqtisodiy birlik o‘ziga xos rivojlanishga, boshqa hududlarga nisbatan “qabul qilinish” va “singib ketishlarga” moyil bo‘ladi. Ya’ni, jamiyatni to‘g‘ri hududiy tashkil etishda ishlab chiqilgan uslublar boshqa hududiy birliklarda samara bermasligi ham mumkin. Bu boradi tadqiqotchi N.O‘.Komilovaning ta’kidlashicha, bunday noo‘rin tashkil etishlar, oqilona yondashuv ko‘zlab hududga begona etnoslarning aralashuvida namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi [7].

Albatta jamiyatni hududiy tashkil etishdan maqsad, hududiy rivojlanish jihatdan optimal bo‘lishga intilishdir. Bu jarayonda esa, har bir hududning ekologik, oziq-ovqat, demografik, iqtisodiy, energetika, ta’lim, sog‘liqni saqlash kabi yordamchi omillarini hisobga olmaslikning iloji yo‘q. Aynan mazkur keltirilgan muammolar barcha davlatlarda bo‘lgani singari respublikada ham tobora keskin tus olayotganligi jamiyatni to‘g‘ri hududiy tashkil etishga nisbatan ma’suliyatni talab etadi.

Jamiyatni hududiy tashkil etish masalalari bilan rus olimlari Y.G.Saushkin (1973), B.S.Xorev (1981) E.B.Alayev (1983), I.M.Mayergoyz (1986), A.A.Tkachenko (1995), A.G.Drujinin (2012) va amerikalik olim R.Morrilla (1970) lar shug‘ullanishgan. Ilk marta bu tushuncha Y.G.Saushkin (1973) tomonidan qo‘llanilgan. R.Morrilla (1970) esa tushunchani yer sharidan foydalanish ma’nosida talqin qiladi va jamiyatni fazoviy tashkil etish, deb nomlaydi [9; 117-b.].

Bundan tashqari geografiya sohasida qator tarmoqlarni hududiy tashkil etishga oid tadqiqotlar uchraydi. Jumladan, ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish (Kalashnikova, 1990), qishloq xo‘jaligini hududiy tashkil etish (Akramov, 1957; Rakitnikov, 1970; Ivanov, 1975; Kryuchkov, 1978; Ro‘ziyev, 1986; Abdullayev, 1988), tabiatdan foydalanishni hududiy tashkil etish (Mins, 1972; Runova, 1993; Ahmadaliyev, 2007) mavzusida geografik tadqiqotlar olib borilgan. A.Soliyev (1999) geografiya fanida ko‘p ishlatiladigan «joylashtirish», «joylanish» va «hududiy tashkil etish» tushunchalari o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlashga uringan.

Tadqiqot mazmunidan kelib chiqib, aholi bilan bog‘liq joylanish masalalari keng qo‘llaniladigan “aholini hududiy tashkil etish” tushunchasi ham “jamiyatni hududiy tashkil etish” tushunchasiga yaqin bo‘lsa-da, ammo ular o‘rtasida sezilarli farqlanishlar mavjud.

Aholini hududiy tashkil etish bevosita aholi joylashuvi iborasi bilan yaqin aloqaga ega. Ikkisida ham aholining ma’lum bir hududiy birligi tushuniladi. Ammo «aholi joylashuvi» iborasi aholi joylashuvining miqdor va sifat yo‘nalishlari hamda hududlarning aniq xususiyati, ya’ni hududiy birligi va inson ijtimoiy faoliyati o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni namayon etadi. Bu munosabatlarning ko‘rsatkichlaridan biri aholi zichligidir. «Aholi zichligi» iborasi geografiya fanida keng qo‘llaniladi. Ko‘plab tadqiqotchilar «aholi joylashuvi» va «aholi zichligi» iboralari bir ma’noni anglatishini ta’kidlaydilar.

Aholini hududiy tashkil etish iborasi oddiy aholi joylashuvi, uning hududiy tarkibidan ancha yuqori turishi avvalgi tadqiqotlarda ta'kidlangan [2]. Sababi aholi punktlari uni boshqarish maqsadida tashkil etiladi. Bunday shakldagi aholi joylashuvi maxsus hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni shakllantiradi (4).

Aholini hududiy tashkil etish bu – uning joylashish jarayonlari bilan mavjud hududiy tarkibini optimallashtirish maqsadida, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishni ta'minlash uchun tadqiqotlar olib boruvchi ilmiy yo'nalishdir (6).

"Aholi" deganda ko'payish jarayonida doimiy ravishda yangilanib turadigan, bir vaqtning o'zida ma'lum hududda yashovchi odamlar yig'indisi tushuniladi. Hududning kattaligi har xil bo'lishi mumkin, mahalladan qishloqqa, qishloqdan tumanga, tumandan viloyatga, viloyatdan mamlakatga, mamlakatdan bir guruh mamlakatlarga, shu jumladan butun sayyoraga. Hududdan tashqarida aholi haqida gapirishdan ma'no yo'q. Aholi qanday yashashidan, nima qilishidan qat'iy nazar, faqat hududni hisobga olgan holda aniqlanadi.

Aholini amaldagi jamiyatning bir qismi, ya'ni birgalikdagi hayot va faoliyatning tarixan belgilangan ijtimoiy shakllari bilan birlashgan odamlar yig'indisi sifatida ko'rib chiqilishi barchaga ma'lum. Odamlar jamiyatdan tashqarida mavjud bo'lmaydi. Aholining, ishlab chiqaruvchi kuchlarning va ishlab chiqarishning hududiy tashkil etilishining umumiyligi butun jamiyatning hududiy tuzilishini belgilaydi.

Jamiyatning hududiy tashkil etilishi geografik mehnat taqsimoti, ishlab chiqaruvchi kuchlarni taqsimlash, migratsiya, jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlar, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy siyosat va hokazolar bilan bog'liq barcha masalalarni qamrab oladi. Shuningdek, jamiyatning hududiy tashkil etilishi mazkur jarayonlarning ham jarayoni, ham natijasi hisoblanadi.

Binobarin, aholining hududiy tashkil etilishi ishlab chiqaruvchi kuchlarning hududiy tashkil etilishi bilan ham, ishlab chiqarishning hududiy tashkil etilishi bilan ham chambarchas bog'liq bo'lib, jamiyatning hududiy tashkil etilishining faqat bir qismi sifatida faqat uning elementlari bilan bog'liq holda ko'rib chiqilishi lozim.

XULOSA

Jamiyatning hududiy tashkil etilishi, o'z navbatida, juda ko'p ko'rsatkichlarga bog'liq bo'lgan dinamik tizimdir. Bu tizim geografik mehnat taqsimoti, ishlab chiqaruvchi kuchlarni taqsimlash, migratsiya, jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlar, mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, ushbu barcha ko'rsatkichlarni o'zaro bog'liqligini hisobga olgan holda ko'rib chiqiladi hamda shundagina butun jamiyatning ham, uning alohida hududiy jamoalarining ham ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini rejalashtirish mumkin bo'ladi.

Barqaror iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va ekistik (turar-joy) omillar hisobga olgan holda mamlakat jamiyatini hududiy tashkil etishga kompleks yondashuv bilangina jamiyatning barqarorligi ta'minlanadi. Bu barqaror rivojlanish jamiyat va tabiatning o'zaro ta'sirida mumkin qadar optimallikka erishadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Алаев Э.Б. Социально-экономическая география. Понятийно- терминологический словарь.-М.: Мысль, 1983.
2. Аҳмадалиев Ю., Абдувалиев Ҳ. Фарғона водийсида аҳоли жойлашувини ландшафт омили асосида такомиллаштириш. Монография. "Classic" нашриёти, Фарғона, 2021.
3. Аҳмадалиев Ю.И. Ер ресурсларидан фойдаланиш геоэкологияси. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2014.
4. Жумаханов Ш. Наманган вилояти аҳолисининг ҳудудий таркибини такомиллаштириш. Геог. фан. ном. ...дис.-Т., 1998.
5. Кишнт А.В. Территориальная организация населения/ Учебное пособие, Новосибирск, 2008.
6. Ковалев С.А. Избранные труды. – Смоленск: Ойкумена, 2003.
7. Комилова Н.Ў. Этноэкологик маданиятнинг географик жиҳатлари (Фарғона водийси мисолида). геогр. фан. фалсафа доктори (PhD) ... дисс. Автореф. – Т., 2019.
8. Крупко А.Э. Теоретические аспекты изучения территориальной организации населения и расселения//Журнал «Вестник ВГУ. 2007.
9. Пространство современной России: возможности и барьеры развития (размышления географов-обществоведов) / отв. ред. А. Г. Дружинин, В. А. Колосов, В. Е. Шувалов. М.: Вузовская книга, 2012.
10. Саушкин Ю.Г. Избранные труды .– Смоленск: Университет, 2001.
11. Солиев А. Ҳудудий мажмуаларнинг назарий асослари. – Тошкент: Университет, 2007.
12. Солодянкина С. В. Ландшафтно-экологическое планирование для оптимизации природопользования: учеб. пособие/ С.В.Солодянкина, М.В.Левашёва. – Иркутск: Изд-во ИГУ, 2013.

13. Тожиева З.Н., Шерхолов О.И. Иқтисодий ва ижтимоий географиянинг замонавий муаммолари: жамиятни ҳудудий ташкил этиш // «Zamonaviy geografik tadqiqotlar: nazariya, amaliyot, innovatsiya» Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (Samarqand, 2023 yil 12-13 may). – Samarqand, 2023.

14. Хорев Б.С. Территориальная организация общества. - М., 1981.